

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA
SHAKLLANGAN SUD TIZIMI

Muallif: Sh.S. Ergashev

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti sharq mamlakatlar tarixi yo'nalishi koreys-ingliz guruhi 2-bosqich talabasi
tell: +998-97-677-20-24 E-mail: sherbekergashev2024@gmail.com*

Ilmiy rahbar: I.M. Xaydarov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası professori, tarix fanlari doktori (DSC). E-mail: izzatillakhon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida shakllangan sud tizimi, uning tuzilishi va faoliyat yuritish mexanizmlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Turkiston, sud tizimi, general gubernatorlik, fuqarolik, harbiy-sud.*

Аннотация: *В данной статье анализируется судебная система, сформировавшаяся в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX века, её структура и механизмы функционирования.*

Ключевые слова: *Туркестан, судебная система, генерал-губернаторство, гражданский, военно-судебный.*

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy jihatdan muhim o'zgarishlar davrini boshdan kechirdi. Bu jarayon, avvalo, Rossiya imperiyasining mintaqani bosib olishi va o'zining mustamlakachilik siyosatini joriy etishi bilan bevosita bog'liq edi. Natijada, Turkiston hududida mavjud bo'lgan an'anaviy boshqaruv va huquqiy tizimlar tubdan o'zgarishga uchradi hamda yangi, imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi boshqaruv institutlari shakllantirildi. Mazkur davrda sud tizimi ham keskin islohotlar ta'sirida qayta tashkil etildi. Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan yangi sud organlari bilan bir qatorda, mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan an'anaviy sud tizimi – qozilik va biylik sudlari ham ma'lum darajada o'z faoliyatini davom ettirdi. Bu esa o'ziga xos ikki yoqlama huquqiy tizimning vujudga kelishiga olib keldi. Bir tomondan, imperiya qonunlari asosida ishlovchi fuqarolik va harbiy sudlar faoliyat yuritgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy urf-odat va islom huquqiga asoslangan sud tizimi saqlanib qoldi. Shu bilan birga, sud tizimidagi bunday parallel mavjudlik huquqiy tengsizlik, adolatning turlicha talqin qilinishi hamda mahalliy aholining manfaatlari yetarlicha himoya qilinmasligi kabi muammolarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, mustamlaka ma'muriyatining ustuvor mavqei sud jarayonlarida ham yaqqol namoyon bo'ldi.

Ushbu maqolaning maqsadi – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida shakllangan sud tizimini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish, uning tuzilishi, faoliyat yuritish xususiyatlari hamda mahalliy jamiyat hayotiga ta'sirini yoritib berishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Abduraximova N.A, Ergashev F.R. “Turkistonda chor mustamlaka tizimi” darsligida keltirilishicha “Kuchaytirilgan qo'riqlov” holati Turkistonda butun 1905 yil davomida amalda

bo'ldi va 1906 yil sentyabrida “butun O'rta Osiyo temir yo'li chizig'i bo'ylab, uning yaqinidagi barcha shaharlarda” joriy qilinuvchi “favqulodda qo'riqlov” holati bilan almashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat Arxivida keltirilishicha Uyezd boshliqlariga yordam tariqasida uchastka pristavlari instituti tashkil qilindi. Pristavlikka odatda chor armiyasi ofitserlari tayinlanib, ular soliq yig'ish, majburiyatlar, uyezd boshliqlari chiqargan qarorlar va ko'rsatmalarning joylarda bajarilishini hamda o'z uchastkalaridagi aholini nazorat qilish bilan shug'ullanardi. Ular o'z nazorati ostidagi uchastka doirasida ro'y bergan turli ishlar bo'yicha dastlabki tergovni yuritish, ma'muriy tartibda 5 rublgacha jarimaga yoki 3 kungacha hibsga tortish huquqiga ega edi.

Asosiy qism. XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim burilish davri bo'ldi. Aynan shu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasi bosib olindi va 1867-yilda bu hududda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Bu siyosiy tuzilma Rossiya imperiyasining mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ma'muriy-siyosiy markaz bo'lib xizmat qildi. Rossiya imperiyasi yangi o'lka ustidan to'liq nazorat o'rnatish, uning iqtisodiy, siyosiy va huquqiy hayotini o'z tizimiga moslashtirishga kirishdi. Shu jarayonda mahalliy xalqning avvaldan shakllangan sud-huquq tizimi ham o'zgartirildi, yangi tartiblar kiritildi. An'anaviy sud tizimiga ko'nikkan mahalliy aholi vakili uchun bu yangi tartiblarga majburan amal qilish og'ir kechdi. Garchi diniy ulamolar sud jarayonlariga o'zgartirishlar kiritish muhimligini e'tirof etsalar-da, amalda eski tartiblarning tiklanishini talab qila boshladilar. Rossiya savdo-sanoat doiralari manfaatlarini himoya qiluvchi gazetasida mustamlaka hukumatining sud tizimini isloh qilish harakatlari tanqidga uchradi. Unda rus hukumati musulmon ruhoniylarini o'ziga qarshi qo'yayotganligi, mahalliy aholining an'analari va qonunlariga aralashuv katta norozilik keltirib chiqarganligi alohida qayd etilgan edi. 1865-yilda Toshkent shahri Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, bosib olingan hududlar “Turkiston viloyati” deb atalgan. 1867-yil 11-iyulda imperator Aleksandr II farmoni bilan “Turkiston general-gubernatorligi” tashkil qilindi. Dastlab uning tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari kiritilgan, keyinchalik Farg'ona, Samarqand va Kaspiyorti viloyatlari qo'shildi. General-gubernator oliy hokim sifatida harbiy, ma'muriy, sud va xo'jalik ishlarini boshqarish vakolatiga ega edi. U to'g'ridan-to'g'ri Rossiya imperatori va harbiy vazirga bo'ysunar edi. Shu tariqa, o'lka boshqaruvi to'liq mustamlakachilik asosida qurilgan edi. Rossiya hukumati 1867-yilgi “Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi vaqtinchalik nizom” (ruscha: “Временное положение об управлении Туркестанского края”) orqali o'lka boshqaruvining huquqiy asosini belgilab berdi. Nizomga ko'ra, mahalliy boshqaruv organlari, jumladan, sud idoralari ham Rossiya qonunlariga bo'sundirilgan, ammo vaqtincha “mahalliy odatlar va islom qonunlariga amal qilish” ga ruxsat etilgan. Bu nizom mahalliy aholining diniy, milliy va huquqiy an'analari nazorat ostida ushlab turish va ularni asta-sekin Rossiya imperiyasining yagona huquqiy tizimiga kiritish maqsadida ishlab chiqilgan edi. Sud tizimi imperiya hukumati tomonidan har bir shakliga aralashish jarayoni keskin kuzatilar edi.

I. Sud tizimining umumiy tuzilishi: Turkiston o'lkasida ikki darajadagi sud tizimi amal qilgan:

1. Rossiya imperiyasi sudlari (mustamlakachi sudlar);
2. Mahalliy sudlar (qozilar sudi va biylar sudi);

Bu ikki tizim parallel ravishda faoliyat yuritgan, biroq yakuniy soʻzni Rossiya maʼmuriyati aytgan.

II. Mahalliy sudlar: Qozilar va biylar

Mahalliy musulmon aholining fuqarolik va oilaviy masalalarini hal etuvchi sudlar qozilar sudi deb atalgan. Ular shariat qonunlari (fiqh) asosida ish yuritgan. Qozilarni tuman boshliqlari tasdiqlagan, ammo general-gubernator tomonidan tasdiqlash yakuniy boʻlgan.

Qozilar sudi quyidagi masalalarni koʻrgan:

1. Nikoh va taloq masalalari
2. Meros, mulk, qarz, vasiyat
3. Ijtimoiy nizolar va bitimlar

Bundan tashqari, biylar sudi (koʻproq qozoq va qirgʻizlar orasida) odat huquqi – “adat” asosida ish yuritgan. Biylar sudlari koʻchmanchi aholining anʼanaviy huquqiy tartibini saqlab qolish uchun ruxsat etilgan edi.

III. Sud jarayonlari va apellyatsiya tartibi:

Mahalliy sudlarning qarorlariga nisbatan shikoyatlar tuman boshligʻi yoki viloyat sudiga yuborilardi. Rossiya maʼmuriyati mahalliy sudlarning har bir qarorini nazorat qilgan. Agar ish siyosiy yoki harbiy tusga ega boʻlsa, u holda general-gubernatorlik huzuridagi maxsus komissiyaga yuborilgan. Rossiya imperiyasi sud tizimidan siyosiy bosim vositasi sifatida foydalangan. “Adolat” niqobi ostida mahalliy aholining manfaatlari kamsitilgan. Masalan, rus fuqarosining guvohligi musulmon guvohligidan ustun qoʻyilgan, shuningdek, shariat sudlarining qarorlari koʻp hollarda Rossiya sudlari tomonidan bekor qilingan. Bu orqali imperiya mahalliy xalqni asta-sekin oʻz huquqiy tizimidan ajratib, rus qonunlariga boʻysundirishni maqsad qilgan.

Hokimiyat, politsiya va sud organlari: ular jazolash funksiyalarining kengayishi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda maʼmuriy va davlat muassasalari tizimidagi oʻzgarishlar bilan bir qatorda sud tizimi hamda hokimiyatning jazolash organlarida ham jiddiy oʻzgarishlar yuz berdi. Ular 1886-yilgi “Nizom” va chorizm tomonidan “istisno tartibida”, imperiya markazi va milliy mintaqalarida samoderjaviyega nisbatan qarshilik kuchayishi munosabati bilan qabul qilingan qonunlarga muvofiq “takomillashtirib” borildi.

Ular orasida markaziy va mahalliy organlar hokimiyati chegaralarini jiddiy kengaytirgan 1881 yil 14 avgustdagi “Davlat tartibi va jamoat osoyishtaligini qoʻriqlash choralari toʻgʻrisidagi nizom” alohida oʻrin tutadi. Ushbu “Nizom”ga muvofiq, chor hukumati oʻz ixtiyoriga koʻra “kuchaytirilgan” yoki “favqulodda” qoʻriqlov holatini joriy qila olardi. “Kuchaytirilgan qoʻriqlov” holati “biron-bir joyda jamoat osoyishtaligi mavjud davlat tuzumiga yoki xususiy shaxslar va ularning mol-mulki xavfsizligiga qarshi jinoiy tajovuzlar uyushtirish yoki ularni tayyorlash tarzida buzilsa, tartibni saqlash uchun doimiy amalda boʻlgan qonunlarning qoʻllanishi yetarli boʻlmagan taqdirda” joriy qilinardi.

Turkistonda sudlov tizimi. Turkistonda sudlov tizimini qayta tuzishdan maqsad chorizm uni Rossiyadagi shunday tizimga moslashtirish va uni maʼmuriyatdan nisbatan mustaqil qilishdan iborat edi. Biroq, yuqorida taʼrifi keltirilgan, mohiyat eʼtibori bilan mustamlaka tizimining soʻnggi kunlariga qadar amalda boʻlgan kuchaytirilgan va favqulodda qoʻriqlov

to'g'risidagi "nizomlar" tufayli sudning ma'muriyatdan ajratilishi faqat rasmiy xarakterga ega bo'ldi. Shunga qaramay XIX asr oxiridagi sud tuzilishi oldingisidan farq qilardi.

1886 yilgi "Nizom"ga ko'ra uyezd sudlari tugatilib, ularning o'rniga uchastka mirovoy (kelishtiruv) sudlari tashkil etildi. 1864 yil sudlov nizomlarining dastlabki matniga ko'ra mirovoy sudyalari shahar va qishloq boshqaruv organlari tomonidan uch yil muddatga saylanishi lozim edi. Biroq Turkistonda sudlov nizomlari qabul qilingan davrga kelib Aleksandr III ning aksil islohotlari amalga oshirilib, 1864 yil nizomlarining u yoki bu darajada demokratik institutlari tarqatib yuborildi. Peterburg, Moskva va Odessadan tashqari barcha joylarda mirovoy sudyalari instituti bekor qilinib, tayinlanuvchi shaxslar: shaharlarda – shahar sudyalari, qishloqlarda – zemstvo boshliqlari bilan almashtirildi. Turkistonda ham mirovoy sudyalari saylanmay, balki tayinlanardi.

Viloyat boshqaruvlarining sudlov bo'limlari viloyat sudlari bilan almashtirildi. Ularning qoshida sud tergovchilari, viloyat prokurorlari va ularning o'rinbosarlari lavozimlari tashkil etildi. Viloyat sudyalari mirovoy sudyalari qurultoylari funksiyalarini bajarar va mirovoy sudyalari vakolatiga kirmaydigan fuqaroviy ishlarni, shuningdek, avval viloyat boshqaruvlarining sudlov bo'limlari yuritgan ishlarni ko'rardi.

Keyinchalik 1898 yil islohot o'tkazilib, u "Sud nizomlarini Turkiston o'lkasi viloyatlarida joriy qilish qoidalari"ga muvofiq tugatilgan viloyat sudlari o'rniga okrug sudlarini va butun Turkiston uchun bosh sudlov idorasi huquqlariga ega bo'lgan Toshkent sudlov palatasini joriy qildi. U faqat imperiyaning oliy sudlov idorasi – Senatga bo'ysunardi.

Okrug sudlari Turkistonning beshta viloyatida joriy qilindi. Ular sud raisi, uning o'rtog'i va sud a'zolaridan iborat edi. Okrug sudlarining yig'ilishlarida sudlanuvchining aybdor yoki aybdor emasligini belgilovchi sud maslahatchilari ishtirok etardi. Jazo chorasini sudya va sudning ikki a'zosi belgilardi. Sud maslahatchilari ishtirokida qabul qilingan okrug sudlari qarorlari qat'iy hisoblanardi, ular ishtirokisiz qabul qilingan qarorlar ustidan esa Toshkent sudlov palatasiga shikoyat berish mumkin edi.

Yuqorida ko'rsatilgan sudlarning faoliyati, eng avvalo, Turkistondagi inqilobiy va milliy-ozodlik harakati ishtirokchilariga qarshi qaratilgan edi. Chunonchi, Toshkent okrug sudida "davlatga qarshi jinoiy qilmishlar to'g'risida"gi (mustamlaka tuzumiga qarshi chiqishlar shunday kvalifikatsiya qilingan edi) ishlar bo'yicha: 1906 y. – 12 ta, 1907 y. – 8 ta, 1908 y. – 12 ta ish ko'rilgan. Ulardan 4 kishi Jinoyat nizomining 102-moddasi ("Rossiyada asosiy qonunlar bilan belgilangan hukmronlik tarzini zo'rvonlik tajovuzi bilan o'zgartirish uchun tuzilgan tashkilotda qatnashganlik")ga ko'ra hukm qilingan.

Samarqand okrug sudida 1906 y. – 5 ta, 1907 y. – 8 ta, 1908 y. – 6 ta shunday ish ko'rilgan edi.

Yangi Marg'ilon okrug sudida esa 1906–1908 yillarda 15 ta ish ko'rilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida shakllangan sud va boshqaruv tizimi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati ta'sirida tubdan o'zgardi. Imperiya tomonidan joriy etilgan ma'muriy-huquqiy islohotlar natijasida an'anaviy mahalliy boshqaruv va sud tizimlari (qozilik va biylik sudlari) saqlangan bo'lsa-da, ular cheklangan vakolatlar asosida faoliyat yuritdi va real hokimiyat Rossiya ma'muriy organlari qo'lida jamlandi. Yangi joriy etilgan sud tizimi, jumladan mirovoy sudlar, okrug sudlari va Toshkent sudlov palatasi imperiya manfaatlariga

xizmat qildi. Ular formal jihatdan huquqiy tartibni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, amalda mustamlaka hokimiyatining siyosiy va ma'muriy bosimini kuchaytiruvchi vositaga aylandi. Ayniqsa, sud jarayonlarida mahalliy aholining manfaatlari yetarlicha himoya qilinmagan, imperiya qonunlari ustuvor mavqega ega bo'lgan.

Shuningdek, “kuchaytirilgan” va “favqulodda qo'riqlov” kabi maxsus rejimlarning joriy etilishi hokimiyat, politsiya va sud organlarining repressiv funksiyalarini yanada kengaytirdi. Uchastka pristavlari va boshqa ma'muriy vakillar orqali aholi ustidan qattiq nazorat o'rnatildi, siyosiy norozilik harakatlari esa sudlar orqali jazolandi. Statistik ma'lumotlar ham shuni ko'rsatadiki, Toshkent, Samarqand va Yangi Marg'ilon okrug sudlarida ko'rilgan ishlarning asosiy qismi inqilobiy va milliy-ozodlik harakati ishtirokchilariga qarshi qaratilgan bo'lib, bu sud tizimining siyosiy xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ushbu davr sud-huquq tizimi mustamlaka boshqaruvining muhim tayanchi bo'lib xizmat qilgan, u adolatni ta'minlashdan ko'ra, imperiya siyosiy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan edi. Shu sababli, Turkiston o'lkasida huquqiy tizim ikkiyoqlama xarakterga ega bo'lib, bu holat mahalliy aholining huquqiy tengsizligini kuchaytirgan va ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning chuqurlashishiga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'rmonjonov Diyorbek. *Международный научный журнал № 39 (100), часть 1 “Научный импульс”* –Moskva.: 2025. 720 bet.
2. Abduraximova N.A, Ergashev F.R. “Turkistonda chor mustamlaka tizimi”. –T.: Akademiya, 2002. 236 bet
3. O'zR Milliy davlat arxivi, I-1 jamg'arma, 27-ro'yxat, 659-ish, 22-49 varaqlar.
4. *Полный свод законов, 3 собрание, т.1, № 350, ст.б, пункт “А”.*
5. Пален КК. *Отчет... Судебные учреждения.* Спб., 1910.